

UDC: 347.2(575.1)

## TOVAR BELGILARINING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINI ANIQLASH MASALALARI

Babakulov Zafar Kurbonnazarovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-3099-6799

e-mail: md\_15@list.ru

**Annotatsiya.** Tovar belgilaringning huquqiy maqomi shaxsiylashtirish vositasi sifatida tovar ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Tovar belgisiga nisbatan egalik qiluvchining huquqiy holati ham tovar belgisi maqomini aniqlashtirishda alohida ahamiyatga ega. Aynan tovar belgisiga egalik qiluvchi tovar belgisining taqdirini belgilab beradi. Boshqa holatlarda tovar belgilaringning huquqiy maqomi fuqarolik-huquqiy shartnomaga munosabatlarda, tovar belgisidan insofsiz raqobat sharoitida foydalanishda o'ziga xos tartibga solish obyektiga aylanadi. Tovar belgisi shaxsiylashtirish vositasi bo'lganligi sababli aniq bir tovar turini uning egasiga nisbatan tegishli ekanligini belgilaydi. Lekin amaldagi tovar belgilari qonunchiligidagi tovar belgilari maqomi masalasi aniq-ravshan belgilab berilmagan. Ayrim qonun hujjatlari esa bir-birini inkor etadi. Tovar belgilardan shartnomaviy munosabatlarda foydalanish shartlari va tartibini belgilashda ham huquqiy analogiyani qo'llashning imkoniy yo'q. Maqolada tovar belgilari fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlashtirish masalalari tegishli qonun hujjatlari asosida tahlil qilingan. Yuqorida masalalardan kelib chiqqan holda, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda birxilashtirish bo'yicha taklif va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tovar belgisi, mutlaq huquq, domen nomi, garov, Singapur shartnomasi.

### ВОПРОСЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО СТАТУСА ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ

Бабакулов Зафар Курбонназарович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Правовой статус товарных знаков проявляется в производстве товаров в качестве средства индивидуализации. Правовой статус владельца товарного знака также особенно важен при определении статуса товарного знака. Именно владелец товарного знака определяет судьбу товарного знака. В других случаях гражданско-правовых договорных отношений использование товарных знаков в случаях недобросовестной конкуренции и правовой статус товарного знака становится уникальным объектом регулирования. Товарный знак как средство индивидуализации определяет принадлежность конкретного типа товара к его собственнику. Однако действующее законодательство о товарных знаках конкретно не определяет вопросы его статуса. Необходимо особо отметить, что некоторые нормы законодательства в области товарных знаков противоречат друг другу. Так, невозможно применение правовой аналогии к определению порядка и условий использования товарных знаков в договорных отношениях. В статье на основании соответствующих законодательных актов проанализированы вопросы определения гражданско-правового статуса товарного знака. Исходя из вышеуказанных проблем,

даны предложения и рекомендации по совершенствованию и унификации действующего законодательства.

**Ключевые слова:** товарный знак, исключительное право, доменное имя, залог, Сингапурский договор.

## ISSUES OF DETERMINATION OF THE LEGAL STATUS OF TRADEMARKS

**Babakulov Zafar Kurbonnazarovich**  
Independent Researcher  
of Tashkent State University of Law, PhD

**Abstract.** The legal status of trademarks comes into attention in the sphere of the production of goods as a means of individualization. The legal status of a trademark owner is also particularly important in order to determine the status of a trademark. It is the owner of the trademark, who determines the fate of the trademark. In other cases, such as civil contractual relations, or the use of trademarks by way of unfair competition, the legal status of a trademark becomes a unique subject of regulation. A trademark, as a means of individualization, determines the belonging of a specific type of product to a particular owner. However, the current laws regulating the use of trademarks do not specifically define issues of its status. It is worth pointing that some norms of the laws contradict each other. Additionally, it is impossible to apply a legal analogy while determining the procedure for the use of trademarks in contractual relations. This article is aimed to analyze relevant provisions of the legislative acts regulating the issues of determination of the legal status of trademarks followed by providing suggestions on the improvement and unification of the current legislation.

**Keywords:** trademark, exclusive rights, domain name, pledge, Singapore treaty.

### Kirish

Intellektual mulkning shaxsiylashtirish vositalari unga egalik qiluvchining mutlaq huquqi bo'lib, shaxs ushbu huquq asosida unga egalik qilishi, foydalanishi va uchinchi shaxslarga tasarruf etishi mumkin. Shaxsiylashtirish vositasi shaxsning mulkiy huquqi toifasiga kiruvchi mulk bilan bog'liq bo'lgan nomoddiy huquqi hisoblanadi. Lekin ushbu xususiyatdagi nomoddiy obyektlariga nisbatan shaxsning egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi odatdagi mulkiy huquqlardan farq qiladi. Ayni vaqtida esa har bir shaxsiylashtirish vositalari ham o'ziga xos shartlarda egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishiga ko'ra tafovutlanadi. Ammo ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat ma'lumot (domen nomi), xizmat ko'rsatish turi (xizmat ko'rsatish belgisi), yuridik shaxsning faoliyat turini (firma nomi) shaxsiylashtirishida namoyon bo'ladi. Tovar belgilari maqomini belgilash ularning huquqiy muhofaza layoqatliligi bo'yicha bel-

gilanadi. Amaldagi tartibda tovar belgilari muhofaza qilishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi bois tovar belgilaring huquqiy maqomini belgilash masalasi ochiqligicha qolmoqda.

### Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida ikkita savolga javob berishga harakat qilindi: birinchisi – tovar belgisiga nisbatan qo'llaniladigan mutlaq huquqning fuqarolik-huquqiy maqomi; ikkinchisi – tovar belgisining huquqiy maqomi.

Mazkur masalalarga mualliflik nuqtai nazari ishlab chiqilib, milliy qonunchilikni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Shu ma'noda ushbu maqola O'zbekiston tovar belgilari fuqarolik-huquqiy maqomining konseptual ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tizimli, tuzilmaviy, formal-yuridik o'rghanish usullaridan foydalanildi.

## Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 97-moddasi 1-qismida tovar belgisining fuqarolik-huquqiy maqomi belganib, unga ko'ra, tovar belgisi intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natjalarga tenglashtirilgan o'ziga xos vositalaridir. Shuningdek, O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 1031-moddasi 2-bandida tovar belgilari fuqarolik muomalasi ishtiroychilarini va tovarlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vosta ekanligi belgilangan.

Tovar belgilarining huquqiy maqomi Fuqarolik kodeksining 1102-moddasiga asosan ro'yxatdan o'tkazilganligi va ushbu ro'yxatdan o'tkazilganlik tegishli guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Tovar belgilariga nisbatan guvohnoma O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdag'i "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga ko'ra, o'n yil muddatga amal qiladi va uning egasi tomonidan berilgan arizaga binoan, har safar o'n yilga uzaytirishi mumkin (qonunning 22-moddasi 1-qismi). Shu bilan birga, hammaga ma'lum tovar belgilarida egalik qilish muddatini cheklash qoidasi (22-moddasi 1-qismi) qo'llanilmaydi. Chunki hammaga ma'lum tovar belgilari muddatsiz asosda huquqiy muhofaza qilinadi (qonunning 32<sup>2</sup>-moddasi 5-qismi).

Tovar belgisi moddiy ashyo xususiyatini o'zida aks ettirib, uning ishlab chiqaruvchisini aniqlashtiradi. Mazkur ustuvorlik mutlaq huquq egasining boshqa shaxslarga nisbatan bir turdag'i mahsulotlarda unga tegishli tovar belgisi bilan bir xil yoki o'xshash boshqa belgilardan foydalanmaslik talabini qo'yish huquqini taqdim etadi. Bu nafaqat bir xil yoki o'xshash belgilar, balki tovar belgisi bilan bir xil yoki o'xshash domen nomlari, firma nomlari xizmat ko'rsatish belgilarini ham ro'yxatdan o'tkazishga nisbatan tegishlidir. Shunga ko'ra, tovar belgilarining huquqiy maqomi ikkiga bo'linadi:

birinchisi – tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqlarning fuqarolik-huquqiy maqomi;  
ikkinchisi – ayni tovar belgisining huquqiy maqomi.

Tovar belgilarining maqomi mutlaq huquq egasining o'ziga tegishli tovar belgisidan foydalanish, unga bo'lgan huquqni tasarruf etish, muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlar qamrovini o'z ichiga oлади. Ikkinchchi xususiyatdagi fuqarolik huquqi maqom tovar belgisining boshqa belgilariga nisbatan ustuvorligini belgilash holatida namoyon bo'ladi.

Tovar belgisi muomalasi munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi huquqiy maqom boshqa shaxslarning tovar belgisiga nisbatan qonunsiz xatti-harakatlaridan huquqiy muhofaza qilish, tovar belgisi egasining talablarini bajarish (shartnoma va shartnomadan tashqari) va unga amal qilish majburiyatini yuklaydi [1]. Tovar belgisidan foydalanish bilan bog'liq shartnoma shartlarida mutlaq huquq egasining talab qilish huquqi tovar belgisi qaysi turdag'i mahsulot uchun ro'yxatga olingan bo'lsa, shu turdag'i mahsulotni ishlab chiqarishi, mahsulotning sifati huquq egasi mahsulotining sifati bilan bir xil bo'lishi lozim (FKning 867-moddasi 1-qismi). Mazkur shart tovar belgisidan shartnoma shartlariga ko'ra tarafning bajarishi lozim bo'lgan majburiyati hisoblanadi. Ushbu qoida tovar belgisi maqomining talab qilishi prinsipi asosida tartibga solinadi. Shartnomadan tashqari holatlarda tovar belgisidan uchinchi shaxslarning ruxsatsiz foydalanishi insofsiz raqobat alomatlarini yuzaga keltirib, tegishli javobgarlikka olib keladi.

Tovar belgisining fuqarolik-huquqiy maqomi vujudga kelganligi uning boshqa belgialarga nisbatan ustuvorligi ta'minlanganligini ko'rsatadi. Tovar belgisi ustuvorligi mutlaq huquq egasiga talab qilish huquqini beradi. Tovar belgisining huquqiy muhofazlanish layoqati boshqa belgilarga nisbatan ustunligini namoyon etishi orqali aniqlanadi. Dunyo davlatlari tovar belgilari qonunchiligidagi tovar

belgisining ustuvorligi va unga nisbatan mutlaq huquqning amal qilishi tovar belgisining ro'yxatdan o'tkazilganligi asosida (faktik) va foydalanishga ko'ra ustuvorlik (nisbiy) belgilanadi [2].

Tovar belgisini foydalanishga ko'ra ustuvorligini belgilash undan ko'rgazma-da foydalanish va tovar ishlab chiqarishda foydalanish ustuvorligini ko'rsatish orqali aniqlashtiriladi. Tovar belgisidan ko'rgazma-da va tovar ishlab chiqarishda foydalanishga ko'ra ustuvorlik bir turda bo'lgan tovardagi tovar belgisi bilan bir xil yoki adashtirish darajasida o'xhash bo'lgan boshqa belgilarning muomalasini cheklash orqali belgilanadi.

Tovar belgisidan foydalanishga ko'ra fuqarolik-huquqiy maqomini belgilash tovar belgisi uchinchi shaxslarga nisbatan bir turdag'i mahsulotlarda birinchi foydalanishga ko'ra aniqlashtiriladi. Albatta, bu yerda maqom masalasi nisbiy ma'noda qo'llaniladi. Bu o'rinda ustuvorlik tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishda namoyon bo'ladi. Agar "A" ismli shaxs "B" ismli shaxsga nisbatan bir turdag'i tovarlarda bir xil tovar belgisidan foydalanayotgan bo'lsa, lekin "A" shaxs "B" shaxsga nisbatan ayni belgidan oldin-roq foydalanyotgani ma'lum bo'lsa, bu holda ustuvorlik "A" shaxsga nisbatan tegishlidir. Garchi "B" shaxs "A" shaxsdan oldin tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etgan bo'lsa ham. Ushbu holatda "B" shaxsning tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishga nisbatan talabi rad etilishi mumkin, qachonki ayni tovar belgisi "A" shaxsga tegishli ekanligi iste'molchi ommasiga ma'lum bo'lsa, shuningdek, Internet tizimida ham ushbu ma'lumot anglashilsa. Lekin "B" shaxs nizoli tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishi mumkinligini qonunchilik cheklamaydi, faqat ushbu tovar belgisi "A" shaxs tomonidan foydalanilayotgan tovar belgisi ostidagi mahsulot bilan bir xil bo'lmasligi lozim. Masalan, "A" shaxs ustuvorligida bo'lgan tovar belgisi qaychi mahsulotini ishlab chiqarishda foydalanilayotgan bo'lsa, "B" ismli shaxs ushbu belgini qoshiq,

sanchqi mahsulotlari uchun ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Garchi ushbu turdag'i tovarlar 1957-yil 15-iyundagi "Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro Tasnifi" (Nitssa Bitimi)ning 8-sinfiga taalluqli bo'lsa-da, foydalanish maqsadiga ko'ra har xildir.

Tovar belgisining ko'rgazma yoki foydalanishga ko'ra ustuvorligi boshqa shaxslarning ushbu belgidan foydalanishni mutlaq asosda uzil-kesil rad etish deb tushunmaslik lozim. Ayni belgidan keyin foydalanayotgan shaxs tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda birinchi foydalanayotgan shaxsning yozma roziligi bilan ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Natijada esa faktik ustuvorlik keyingi shaxs uchun paydo bo'ladi.

Tovar belgisining domen nomi, firma nomlari bilan o'zaro bir xilligi yoki o'xhashligi nisbati bo'yicha maqomini belgilash raqobat qonunchiligiga ko'ra aniqlashtiriladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu holatda ustuvorlik masalasi qaysi bir shaxsiylashtirish vositasi ning birinchi bo'lib ro'yxatdan o'tkazilganligi bilan belgilanadi. Har bir shaxsiylashtirish vositasi o'ziga xos vazifani bajaradi. Domen nomi Internet tarmog'idagi manzil va undagi ma'lumotni shaxsiylashtirsa, firma nomi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli, xizmat ko'rsatish belgisi xizmat ko'rsatish faoliyati turi (sartaroshlik, tibbiy xizmat), tovar belgisi esa ayni bir turdag'i mahsulotni shaxsiylashtiradi.

Shaxsiylashtirish vositalari muomalasida ularning o'zaro ziddiyati oldin yoki keyin paydo bo'lganligi bilan, ikkinchisi oldin paydo bo'lgan belgining keyin paydo bo'lgan belgini takrorlashi holatida yuzaga keladi. Masalan, "A" shaxs "DOMESTO" tovar belgisini kir yuvish kukunini ishlab chiqarish uchun dastlab ro'yxatdan o'tkazgan, ayni vaqtida "B" shaxs ham ustuvor tovar belgisi bilan bir xil "DOMESTO.UZ" deb domen nomini keyin ro'yxatdan o'tkazgan bo'lsa, lekin domen nomidan santexnika xizmatini ko'rsatishda foydalanilayotgan bo'lsa, ushbu holatda to-

var belgisi va domen nomi o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lmaydi va "B" shaxsning xatti-harakatlari insofsiz raqobat deb e'tirof etilmaydi.

Biroq "DOMESTO" tovar belgisining egasi "DOMESTOS.UZ" deb ro'yxatdan o'tkazgan va u ham santexnika xizmatini ko'rsatayotgan bo'lsa, ushbu tovar belgisi egasining xatti-harakatlarida insofsiz raqobat alomatlari yuzaga kelganligi sabab domen nomi egasining talabiga ko'ra, "DOMESTOS.UZ" ro'yxatdan o'tkazilganligi bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, ushbu holatning aksi takrorlasa ham insofsiz raqobat alomatlarini namoyon qiladi. Mazkur holat O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi qonunining 13-moddasi 1-qismi 2-bandida o'z aksini topgan. Lekin domen nomini ro'yxatdan o'tkazishda tovar belgisi bilan bir xilligi holatida ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asoslari ko'rsatib berilmagan. Vaholanki, 2008-yil 26-maydagi «UZ» domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 75-bandida domen nomlari ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lgan domen nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomi bo'lgan domen nomlari, firma nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan domen nomini ro'yxatdan o'tkazish yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan. Bu o'rinda domen nomida tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish cheklanmaganligi bois tovar belgilari huquqiy maqomini xavf ostiga qo'yadi. Demakki, qonunchilikda ushbu masalani tartibga solishdagi qonunchilik qoidalari birxillashtirilishi lozim.

Mulkiy munosabatlarda ashyoga nisbatan egalik qilish biron-bir muddat bilan chegaralanmaydi va ayrim holatlarda mulkka egalik qilishga ortiqcha rasmiyatlichiliksiz yo'l qo'yiladi. Tovar belgisi shaxsning mulkiy huquqlari toifasiga kiruvchi nomoddiy vosita sanalsa-da, unga egalik qilish ma'lum muddat bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, mulkiy huquqlarda bir shaxsning egaligidagi

mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning egalik qilishga nisbatan talab qilish huquqi mavjud bo'lmaydi. Tovar belgilari qonunchiligidida esa mazkur qoida o'z aksini topgan va bunga yo'l qo'yiladi. Ushbu qoida nafaqat O'zbekiston, balki boshqa xorijiy davlatlar tovar qonunchiligidida ham mavjud. Moddiy ashyodan foydalanish doirasi va subyektlariga ko'ra cheklansa, tovar belgilariidan foydalanishga ko'ra shaxslar va makon doirasi chegaralanmaydi [3]. Tovar belgisidan bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq shaxslar chegaralanmagan doirada foydalanishi mumkin. Lekin tovar belgisidan foydalanish hududini belgilash masalasi tovar belgilariidan foydalanish maqomi mazmunini nisbatan chegaralaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1036-moddasi 2-qismida mutlaq huquq egasi litsenziatga tovar belgisidan foydalanish chegarasini aniq belgilab berishi lozim. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining (4-qism) 1489-moddasida litsenziya shartnomasida tovar belgisidan foydalanish hududi belgilanishi yoki belgilanmasligi ham mumkin [4]. Tovar belgisidan tegishli hududda foydalanish talabiga milliy qonunchilikka nisbatan Rossiya qonunchiliği dispozitiv yondashadi. Ya'ni Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, agar litsenziya shartnomasida tovar belgisidan foydalanish hududi ko'rsatilmagan bo'lsa, demakki, ushbu tovar belgisidan Rossiyaning butun hududida foydalanish mumkinligi anglashiladi [5]. Nazarimizda, milliy qonunchilikda ushbu qoidaning imperativ belgilanishi tovar belgisi egasi bilan litsenziatning raqobatlashmasligini belgilashga qaratilgan. Litsenziya shartnomasiga ko'ra, tovar belgisidan foydalangan holda, litsenziatning mahsulot ishlab chiqarishi va uni sotish doirasi ma'lum hudud bilan chegaralanib qolmaydi. Litsenziatning ishlab chiqargan tovarini litsenziar faoliyat olib borayotgan hududda sotmasligi masalaning uzil-kesil hal etilishiga yechim bo'la olmaydi. Chunki litsenziat tovari ni litsenziar hududida sotmasa ham uchin-

chi shaxslar orqali litsenziar faoliyat olib borayotgan hududga kirib boradi va o'z-o'zida litsenziar bilan raqobatlashish holati yuzaga keladi. Bu esa litsenziarning litsenziatga nisbatan e'tirozlarini paydo qiladi. Bu o'rinda litsenziarning talablari, albatta, o'rinsiz. Negaki litsenziat o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarning tegishli hududlarda tarqalishini nazorat qilish imkoniga ega emas.

Tovar belgilari huquqiy maqomi unga egalik qiluvchining tovar belgisiga nisbatan egalik qilish holati bilan ham o'zaro bog'liq. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdag'i "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunining 27-moddasiga ko'ra, mutlaq huquq egasi tovar belgisidan quyidagi hollarda foydalangan deb hisoblanadi:

- reklamada, bosma nashrlarda, rasmiy blankalarda, peshlavhalarda, ko'rgazmalar va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish etish vaqtida, ishlab chiqarilayotgan, sotuvga taqdim etilayotgan, sotilayotgan yoki boshqacha tarzda fuqarolik muomallasiga kiritilayotgan yoxud shu maqsadda saqlanayotgan va (yoki) tashilayotgan yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirlayotgan tovarlarning etiketkalarida, o'rovlarida;

- tovarlarni fuqarolik muomallasiga kiritish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarda;

- domen nomida ishlatilishi ham tovar belgisidan foydalanish deb e'tirof etilishi mumkin. Mutlaq huquq egasi tomonidan ushbu talablarga ko'ra tovar belgisidan oxirgi uch yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida uzrli sababsiz uzlusiz foydalanilmasligi Fuqarolik kodeksining 1104-moddasi 1-qismiga ko'ra, tovar belgisining ro'yxatdan o'tkazilganligi istalgan manfaatdor shaxsning talabi bo'yicha sudning qaroriga asosan bekor qilinishiga olib keladi. Tovar belgisiga nisbatan manfaatdor shaxs har kim bo'lishi mumkin. Uning manfaatdorligini u yoki bu shartga ko'ra chegaralashning imkoniy yo'q [6]. Lekin bir jihatni e'tiborga olish lozimki,

manfaatdor shaxsning asosiy jihatlaridan biri ro'yxatdan o'tkazilganligini bekor qilishni tabab qilinayotgan tovar belgisidan tovar ishlab chiqarish munosabatlarida faktik foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim [7]. Boshqa xususiyatdagi manfaatdorlik tovar belgisi maqomini chetlab o'tadi va nisbiy manfaatdorlikka aylanadi.

Tovar belgisining huquqiy maqomi mutlaq huquq egasining yuridik holatini belgilaydi. Tovar belgilari qonunchiligiga ko'ra, tovar belgisiga nisbatan egalik qilish yuridik va jismoniy shaxslarga tegishlidir. Yuridik shaxslarning tovar belgisiga nisbatan egalik qilishini odatiy hol sifatida tushunish mumkin, lekin tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan egalik qilishini qanday tushunish mumkin?

Tovar belgilari maqomi uning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liqligini belgilaydi. Tovar belgisiga nisbatan shunchaki egalik qilishi boshqa shaxslarning bir xil va o'xhash belgilarni tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazishda to'siq bo'lishi mumkin. Bu esa manfaatdor shaxslarning haqli talablari paydo bo'lishiga olib keladi. E.P. Gavrilov ta'kidlaganidek, "ular muntazam ravishda emas, balki vaqt-vaqt bilan ishlab chiqarilgan va fuqarolik muomallasiga kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquq egalari bo'lishga obyektiv ehtiyoj seishi mumkin" [5]. Ushbu qarash S.V. Butenko [8] tomonidan ham to'liq qo'llab-quvvatlanaadi. Shuningdek, o'xhash qarashlar D.V. Mazyev [9] ilmiy ishlarida ham mavjud. Tovar belgisiga egalik qiluvchining huquqiy maqomini qo'llashda Rossiya Federatsiyasi tovar belgilari qonunchiligi qat'iy talabni belgilaydi. Unga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining (4-qismi) 1478-moddasiga binoan, tovar belgilariga nisbatan mutlaq huquq asosida egalik qilishga faqat yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkor ega. Shuningdek, 2006-yil qabul qilingan, 2009-yil amalga kiritilgan "Tovar belgilari qonuni to'g'risidagi

Singapur Shartnomasi”da tovar belgisining egasi yuridik hamda jismoniy shaxs bo’lishi mumkinligi belgilangan (1-modda). Lekin ushbu shartnomada jismoniy shaxsning xususiyati aniq ochib berilmagan. Demakki, mazkur qoidaga tayanib, jismoniy shaxsni tadbirkorlik faoliyatini olib bormaydigan subyekt deb tushunish ham mumkin. Rossiya Federatsiyasi mazkur shartnomani 2009-yil 18-sentabrda ratifikatsiya qilgan [10] bo’lsa, tovar belgisiga nisbatan jismoniy shaxsni subyekt sifatida tan olmaydi. Shuningdek, ushbu shart 2019-yil 23-apreldagi “Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi to’rtinchı qismini qo’llash to’g’risida”gi Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumi № 10-sonli qaroring 157-bandida tovar belgisiga nisbatan huquq egasini yuridik shaxslar va yakka taribdagи tadbirkorlik subyektlar tan oladi.

O’zbekiston Respublikasi tovar belgilari qonunchiligidan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidan farqli o’laroq, tovar belgisiga nisbatan egalik qilish huquqi ham jismoniy, ham yuridik shaxsga tegishlidir. Mazkur tarib O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4965-sonli qarori bilan belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq, 2001-yil 30-avgustdagи “Tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to’g’risida”gi qonunning 4-moddasi 2-qismida tovar belgisi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs nomiga ro’yxatdan o’tkazilishi mumkinligi belgilangan. Ammo 2009-yil 24-iyundagi 1988-sonli “Tovar belgisi va xizmat ko’rsatish belgisini ro’yxatdan o’tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko’rib chiqish Qoidalari”ning 35-bandida “tovar belgisiga talabnoma topshirish huquqiga yuridik shaxs, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi jismoniy shaxs egadir” deb belgilangan. Mazkur holatda ham tovar belgilari qonunchiligi birxillashtirilishiga ehtiyoj mavjud.

Chunki O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida PQ-4965-sonli qarorida va “Tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to’g’risida”gi qonunning 4-moddasi 2-qismida tovar belgisiga nisbatan egalik qilishda jismoniy shaxsni e’tirof etayotgan bo’lsa, tovar belgilari ro’yxatdan o’tkazilishini tartibga soluvchi 1988-sonli Qoidada tovar belgisiga bo’lgan huquq jismoniy shaxsga berilmasligi qayd qilingan.

Tovar belgilari huquqiy maqomini belgilashda tovar belgisiga nisbatan egalik qiluvchining jismoniy shaxs bo’lishi mumkinligi masalasi qanday huquqiy maqomga ega? N.F. Imomov ta’kidlaganidek, “tovar belgiliga nisbatan, faktik nuqtai nazardan shaxsiylashtirish muayyan reyestr mavjudligining natijasi emas, balki muayyan tadbirkorlik urinishlarining samarasidir” [11]. Tovar belgisini shaxsiylashtirishdan maqsad uni shunchaki keraksiz buyum kabi saqlash emas, balki tovar ishlab chiqarishda foydalanishdan iboratdir. Tadbirkorlik faoliyati maqomiga ega bo’lmagan jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan egalik qilish maqsadi, avvalo, tegishli muddatda ishlab chiqarishda foydalanishdan iborat. Nazarimizda, jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan egalik qilish huquqini cheklangan nisbiy ma’nda tushunish lozim. Ya’ni ma’lum muddatda tovar belgisini shaxsiylashtirgan shaxs ishlab chiqarishda foydalanishni yo’lga qo’yishi lozim. Aks holda, ushbu tovar belgisi manfaatdor shaxsning talabi bilan bekor qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda, jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan egalik qilish bilan bog’liq qonunchilikda alohida qoidalari belgilash talab etiladi. Aks holda, bir jismoniy shaxsning ikki va undan tovar belgilariga bo’lgan huquqlari paydo bo’ladi. Bu esa uchinchi shaxslar uchun ustuvor tovar belgisi bilan bir xil yoki o’xshash tovar belgilarini ro’yxatdan o’tkazish imkoniyati yo’qoladi. Albatta, tovar belgisi bu mutlaq huquq egasining mulki hisoblanadi. Demakki,

ushbu huquq uchinchchi shaxslarning asossiz talablaridan muhofaza qilinishi lozim. Lekin ro'yxatga olingan tovar belgisining boshqa bir xil yoki o'xhash belgilarni ro'yxatdan o'tkazishda to'siqlarni yuzaga keltirganligi sabab muayyan asosga ko'ra tartibga solinish, tegishli asos bo'lsa, o'zga manfaatdor shaxslarning talablari inobatga olinishi lozim [12]. Bunda asosiy g'oya tovar belgisiga bo'lgan huquqni olgan jismoniy shaxs undan tovar ishlab chiqarishda foydalanishi lozimligini belgilashdan iboratdir.

Tovar belgilarining huquqiy maqomi qamrovi juda keng. Bunga nafaqat yakka tartibdagi tovar belgisi, balki jamoaviy tovar belgilar, hammaga ma'lum tovar belgilari kabilar ham kiradi. Ushbu toifadagi tovar belgilarining ham huquqiy maqomi turlicha qoidalarga ko'ra tartibga solinadi. Masalan, hammaga ma'lum tovar belgilari mutlaq ustuvorlik maqomiga ega. Ushbu xususiyatdagi tovar belgisiga nisbatan shaxsning mutlaq huquqlari muddatsiz amal qiladi. Oddiy xususiyatdagi tovar belgilarining ustuvorligi bir turdag'i tovarlardagi bir xil yoki o'xhash belgilarga nisbatan qo'llanilsa, hammaga ma'lum tovar belgilarining har qanday tovarlarga nisbatan boshqa shaxslarning belgilangan tartibda hammaga ma'lum deb e'tirof etilgan tovar belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xhash bo'lgan belgilarga nisbatan qo'llaniladi.

Shuningdek, jamoaviy tovar belgilari huquqiy maqomi ham o'ziga xos tartibga solinish premetiga ega. Yakka tartibdagi tovar belgilaridan foydalanish yakka shaxs tomonidan berilgan talabnomaga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilsa, jamoaviy tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomaga yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar birlashmasi nomidan birlashma qatnashchilarining jamoaviy belgidan foydalanish to'g'risidagi keliheviga muvofiq beriladi. Yakka tartibdagi tovar belgisidan foydalanish huquqini boshqa shaxsga foydalanish uchun berishga ruxsat etilsa, jamoaviy belgilarni foydalanish uchun

boshqa shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi [13].

Tovar belgilari huquqiy maqomi tovar belgilaridan turli fuqaroviylar shartnomaviy munosabatlarda foydalanishda o'ziga xos tartibga solish jihatlarini paydo qiladi. Ma'lumki, tovar belgilariga nisbatan huquqni amalga oshirish undan foydalanish va ushbu huquqni boshqa shaxslarga tasarruf etishi bilan belgilanadi. Tovar belgilaridan foydalanish mutlaq huquq asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik-huquqiy shartnomaviy munosabatlarda tovar belgilarining mutlaq huquqiy maqomi uchinchchi shaxslarning tovar belgisidan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi. Tovar belgisidan fuqarolik muomalasida foydalanish imkonini beruvchi shartnomaviy munosabatlar mazmuni dan kelib chiqqan holda, tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquq egasining huquqiy maqomi alohida shartlarga ko'ra belgilanadi [1]. Ma'lumki, tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquq garov narsasi bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi "Garov to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida garchi tovar belgilarining garov narsasi bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi shart alohida belgilangan bo'lmasa ham, "har qanday mol-mulk" garov narsasi bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Demakki, tovar belgilari ham garov narsasi sifatida fuqarolik muomalasida qo'llanilishi mumkin.

Garov shartnomasiga ko'ra, garov narsasi bo'lgan tovar belgisi baholash obyekti bo'libgina qolmasdan, qarzdor (mutlaq huquq egasi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan tovar belgisi qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli sur'atda qanoatlantirishi mumkin. Mutlaq huquq egasining garov majburiyatini bajarmaganligi garovga oluvchini tovar belgisiga nisbatan huquqni tasarruf etishi vakolatini taqdim etadi. Tovar belgisiga bo'lgan

huquqni ushbu asosda uchinchi shaxslarga tasarruf etish tovar belgisiga nisbatan huquqiy maqomning kelajakda o'zgarishiga olib keladi [15]. Ushbu o'zgarish, birinchidan, tovar belgisiga nisbatan egalik qilish huquqi boshqa shaxsga o'tadi; ikkinchidan, tovar belgisi ro'yxatga olingan tovarlarning turlari o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi)ga olib keladi.

Garov munosabatlarida tovar belgilari huquqiy maqomini belgilash amaldagi fuqarolik qonunchiligidagi ayrim tahlil etilishi lozim bo'lgan masalalarni o'rtaqa qo'yadi. Bu, avvalo, tovar belgilarini baholash tartibi (afsuski, amaldagi qonunchilikda intellektual mulk obyektlarini baholash metodikasi mavjud emas), tovar belgisidan garovga oluvchining foydalanish tartibi va shartlari, garovga oluvchining tovar belgisidan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga taqdim etish, tovar belgisiga bo'lgan huquqni garovga qo'yuvchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmagan holatlarda garovga oluvchining mavjud qarzdorlikni undirish uchun garov narsasi bo'lgan tovar belgisiga qaratish tartibi va shartlari mavjud emasligida namoyon bo'ladi.

### Xulosalar

Tovar belgilarining huquqiy maqomi egalik qilishga ko'ra, mutlaq ustuvor xususiyatga ega emas. Bu ham tovar belgilari huquqiy maqomida, ham tovar belgilariga nisbatan mutlaq huquqiy maqomda anglashiladi. Amalda-gi fuqarolik va tovar belgilari qonunchiligidagi tovar belgilari hamda unga nisbatan mutlaq huquqlarni amalga oshirishning muayyan talab va mezonlari mavjud emas. Bu esa tovar belgisini shaxsiylashtirishning boshqa vositalari bilan o'zaro nisbatini belgilash, tovar belgilaridan fuqarolik-huquqiy shartnoma munosabatlarida foydalanishda taraflarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish doirasi va ularning chegarasini aniqlashtirishda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, savdo munosabatlarining Internet tarmog'i orqali amalga oshirilishi tovar

belgilarini onlayn makondagi maqomi masalasini ham belgilash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bir qarashda tovar belgilarini shaxsiylashtirishning boshqa vositalari bilan o'zaro nisbati oddiydek ko'rinsa-da, ularning o'zaro to'qnashuvi taraflar uchun nizoli holatlarni paydo qilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini amalgalashmaydigan jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan egalik qilish huquqining mavjudligi tovar belgisi huquqiy maqomini to'liq ko'rsatib bermaydi. Ushbu maqom faqat egalik qilish bilangina cheklanadi, xolos. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdag'i "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonuning 27-moddasida tovar belgisidan foydalanish bilan bog'liq qoidalar jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan huquqlarini to'liq amalgalashmaydigan imkon bermaydi. To'g'ri, ushbu qonunning 27-moddasida 2-qismi uchinchi bandidagi domen nomida tovar belgisining ishlatalishi tovar belgisiga nisbatan huquqni amalgalashmaydigan imkon bermaydi. Lekin qoidaga ko'ra tovar belgisi maqomini aniqlashtirmaydi. Chunki tovar belgisi mahsulotni shaxsiylashtiradi, domen nomini emas.

Shu nuqtai nazardan, tovar belgilari qonunchiligidagi jismoniy shaxsning tovar belgisiga nisbatan ushbu belgi ro'yxatga olingan tovarlarni ishlab chiqarmasdan faqatgina egalik qilish huquqini mutlaq huquq sifatida tushunmaslik lozim. Chunki mazkur mutlaq huquqdan uning egasining foydalanmasligi boshqalarning huquq va manfaatlari cheklanishiga olib keladi. Nazarimizda, tovar belgisiga nisbatan mazkur mutlaq vakolatni chekllovchi qoidani qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq. Ya'ni unga ko'ra, jismoniy shaxs tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazgach, belgilangan muddat ichida undan tovar ishlab chiqarishda foydalanishi lozim.

Tovar belgisi huquqiy maqomining zaruriy belgisi undan tovar ishlab chiqarishda foydalanishdir. Huquqiy maqom asosida tar-

tibga solinadigan munosabatlar nafaqat tovar belgisidan foydalanish, balki unga egalik qiluvchining ham alohida maqomini belgilaydi. Tovar belgisiga nisbatan egalik qiluvchi-

ning maqomi tovar belgisi ustuvorligi hisobiga boshqa belgilarning o'z egaligidagi tovar belgisi bilan bir xil yoki o'xshash holda foydalanmaslik talabini qo'yishda namoyon bo'ladi.

## REFERENCES

1. Wu W. The balances of two trademark rights: generation systems in Japan's Trademark Laws. *J. Marshall Rev. Intell. Prop. L.*, 2017, vol. 17, p. i.
2. Anuchkina A.D., Belokopytova N.Ju., Petrov V.D. Tovarnyj znak kak ob'ekt pravovoj ohrany [Trademark as an object of legal protection]. *Innovation and science*, 2016, no. 4 (53), p. 130.
3. Nwabueze C. Challenges of transnational trademark law practice: The Case of Nigerian companies' brands in OAPI States. *Revue générale de droit – General Review of Law*, 2015, vol. 45, no. 1, pp. 321-347.
4. Bagdasaryan A.A. Mezhdunarodno-pravovye aspekyt okhrany sredstv individualizatsii [International legal aspects of the protection of means of individualization]. *Law and practice*, 2011, no. 1. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodno-pravove-aspekyt-ohrany-sredstv-individualizatsii/> (accessed 13.04.2022).
5. Gavrilov E.P., Yeremenko V.I. Kommentariy k chasti chetvertoy Grazhdanskogo kodeksa Rossiyskoy Federatsii [Commentary on Part Four of the Civil Code of the Russian Federation]. 2009, p. 554.
6. Paksimadi Ye.E. Vozmozhnost' priznaniya oboznacheniya obshcheizvestnym kak osnovaniye dlya dosrochnogo prekrashcheniya okhrany tovarnogo znaka [The possibility of recognizing the designation as well-known as a basis for early termination of trademark protection]. *Bulletin of the University named after O.E. Kutafin*, 2017, no. 6 (34). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnost-priznaniya-oboznacheniya-obscheizvestnym-kak-osnovanie-dlya-dosrochnogo-prekrascheniya-ohrany-tovarnogo-znaka/> (accessed 13.04.2022).
7. Buklova A.V. Osobennosti rassmotreniya sudom po intellektual'nym pravam del o dosrochnom prekrashchenii pravovoy okhrany tovarnogo znaka vsledstviye yego neispol'zovaniya [Features of consideration by the intellectual property court of cases on early termination of the legal protection of a trademark due to its non-use]. *Issues of Russian Justice*, 2022, no. 17. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-rassmotreniya-sudom-po-intellektualnym-pravam-del-o-dosrochnom-prekraschenii-pravovoy-ohrany-tovarnogo-znaka-vsledstvie/> (accessed 13.04.2022).
8. Butenko S.V. Vvedeniye potrebitelya v zabluzhdeniye kak absolyutnoye osnovaniye dlya otkaza v predostavlenii pravovoy okhrany tovarnomu znaku [Misleading the consumer as an absolute ground for refusing to grant legal protection to a trademark]. PhD thesis. 12.00.03. Moscow, 2014.
9. Mazayev D.V. Grazhdansko-pravovaya zashchita prav na tovarnye znaki [Civil law protection of rights to trademarks]. PhD thesis. 12.00.03. Moscow, 2011, p. 93.
10. WIPO administrative treaties. Available at: [https://wipolex.wipo.int/ru/treaties>ShowResults?search\\_what=C&treaty\\_id=30/](https://wipolex.wipo.int/ru/treaties>ShowResults?search_what=C&treaty_id=30/).
11. Imomov N.F. Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari [New objects of intellectual property law]. Tashkent, TSIL Publ., 2011, p.141.
12. Gazarova V.S. Osobennosti dosrochnogo prekrashcheniya okhrany tovarnogo znaka [Peculiarities of early termination of trademark protection]. *Bulletin of the Magistracy*, 2014, no. 9 (36). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-dosrochnogo-prekrascheniya-ohrany-tovarnogo-znaka/> (accessed 13.04.2022).

13. Kononenko R.O. Kollektivnyy tovarnyy znak: osobennosti pravovogo rezhima i rasporyazheniya pravom na nego [Collective trademark: features of the legal regime and disposal of the right to it]. *Society and Law*, 2011, no. 1 (33). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kollektivnyy-tovarnyy-znak-osobennosti-pravovogo-rezhima-i-rasporyazheniya-pravom-na-nego/> (accessed 13.04.2022).
14. Epstein E.J. The evolution of China's general principles of civil law. *Am. J. Comp. L.*, 1986, vol. 34, p. 705.
15. Babakulov Z.K. Tovar belgisidan foydalanishda fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari [Issues of civil-legal responsibility in the use of the trademark]. *Lawer herald*, 2021, vol. 2, iss. 1, pp. 32-39. DOI: 10.26739/2181-9416-2021-2-3/.
16. Babakulov Z. Teoreticheskiye i prakticheskiye aspekty zaloga isklyuchitel'nykh praw (na primere tovarnogo znaka) [Theoretical and practical aspects of the pledge of exclusive rights (by the example of a trademark)]. *Review of law sciences*, vol. 5, no. spec. iss., 2020, pp. 68-80. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-68-80/.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**  
**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**  
**Ikrom Ergashev**  
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov  
**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova  
**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**  
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.  
**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)  
**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)  
**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)  
**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.  
Buyurtma raqami: 47.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.